

2020 yilning 1 yanvaridan O'zbekiston Respublikasida jamoat transporti uchun yagona to'lov tizimi joriy etiladi. Ushbu ma'lumot poytaxtimiz Transport boshqarmasining matbuot xizmati tomonidan berildi.

Hajm jihatidan bank plastik kartochkasiga o'xshash yagona aloqasiz chipta yordamida O'zbekistonning barcha shaharlaridagi har qanday transport turida to'lov amalga oshirsa bo'ladi. Chiptani taxminan 30 ming so'mga sotib olib, mobil telefondagi ilova yoki bank plastik kartochkasi orqali (shu jumladan, xalqaro to'lov tizimlari yordamida) mablag' bilan to'ldirib borish mumkin. Yangi metro bekatlarida turniketlar ushbu tizim joriy qilinishi uchun moslashtirilib bo'lgan.

To'rt turdagi tarif amal qiladi: pensionerlar, talabalar va o'quvchilar uchun, imtiyozli chipta, hamda imtiyozli tarif. Transportdan foydalanish uchun to'lov har bir hududda o'rnatilgan transport to'loviga bog'liq bo'lib, yo'lovchilarning turli toifalari uchun imtiyoz va chegirmalarni hisobga olib boradi. Chiptalarda chipta egasining rasmi tushirilgan bo'lishi rejalashtirilgan.

Jamoat transporti safar uchun to'lovni o'zi echib oladigan hisob qurilmalari bilan ta'minlanadi. Yo'lovchi chiptani qurilmaga yaqinlashtirsa etarli, to'lov avtomatik ravishda echiladi.